
Yangi yil bayrami arafasida 100 dan ziyod ehtiyojmand oilaga saxovat yordami ko'rsatildi

□ Yangi yil bayrami arafasida Rishton tumanida yolg'iz keksalar, boquvchisini yo'qotgan, kam ta'minlangan oilalar, nogironlar, bemorlar holidan xabar olinib, ularga moddiy ko'mak berilmoqda.

✿ Bayram kunlarida ehtiyojmand oilalarga quvonch ulashish maqsadida xayrli tadbir amalga oshirildi. Tuman hokimi boshchiligidagi hokimlik vakillari, mahalla fuqarolar yig'inlarida faoliyat yuritayotgan beshdik tomonidan nuroniylar va ijtimoiy ko'makka muhtoj oilalar holidan xabar olib, ularga moddiy-ma'naviy yordam ko'rsatilmoqda.

📌 Kecha kam ta'minlangan, nogironligi bo'lgan, boquvchisini yo'qotgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj, "Temir daftar" va "Ayollar daftari"ga kiritilgan 100 dan ziyod xonadonga 10 turdagi birlamchi oziq-ovqat mahsulotlari tarqatildi.

Bu kabi xayrli tadbirlar orqali boquvchisini yo'qotgan, ijtimoiy himoyaga muhtoj insonlarga quvonch ulashilmoqda.

□ Fuqarolarimiz bayram kunlarida ana shunday ezgu ishlarga bosh qo'shgan saxovatpesha insonlarga samimiy minnatdorlik bildirib, o'z duolarida el-yurtimizga tinchlik, yurtdoshlarimizga omonlik, Yurtboshimizga mustahkam salomatlik tiladi.

2022-12-30 08:40:33